

BOYSUN O'TMISHI VA TOPONOMIK MEROSI

Botirova Manzura Abdunabiyevna

Termiz arxeologiya muzeyi

katta ilmiy xodimi

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:03.07.2025

Revised: 04.07.2025

Accepted:05.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

Boysun, toponomika,
tarixiy meros, geografik
nomlar, og'zaki ijod,
madaniy qadriyatlar, joy
nomlari.

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining qadimiy hududi hisoblangan Boysun tumanining tarixiy o'tmishi va toponomik merosi o'rganiladi. Boysun geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti hamda madaniy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Maqolada toponimlarning kelib chiqishi, ularning lingvistik va tarixiy ildizlari, shuningdek, xalq og'zaki ijodi va mahalliy urf-odatlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mahalliy aholi orasida saqlanib qolgan tarixiy nomlar va ularning mazmun-mohiyati orqali Boysunning madaniy-identitetini yoritish maqsad qilingan.

Boysun hududi qariyb 3000 yildan buyon elat va xalqlarning, savdo karvonlari, zardushtiy, buddaviy va nasroniy da'vatchilarning, islom lashkarlari, mahalliy sulola hukmdorlari, Chingizxon qo'shinlari, elchi va sayyohlarning janubdan shimolga So'g'ddan Baqtriya-Toxaristonga betinim o'tib turgan mavzesidir. Bu jarayon o'z navbatida Boysun tarixiy joylarining shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Boysun tarixiy toponimlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri-bu hudud joy nomlarida baqtriya va qadimgi turkiy tilga xos atamalarining qadimdan mavjud bo'lganligidir.

X asr muallifi al-Muqaddasiy Chag'oniyonda o'lka nomi bilan atalgan poytaxtdan tashqari 12 ta shaharning nomini keltirgan. Al-Muqaddasiy sanab o'tgan shaharlar qatoriga Bosand ham kiradi. Bosand haqidagi ma'lumotlar Abu Is'hoq Istahriy 930-yilda yozgan "Kitob masalik va al-Mamolik" ("Mamlakatlar yo'llari to'g'risidagi kitob") asarida bir

qadar batafsil bayon etilgan. Istahriyda Basand Chagʻoniyondan ikki kunlik Samarqand va Buxoro yoʻlida deb taʼkidlangan. 982-yilda nomaʼlum muallif tomonidan yozilgan “Kitob hudud ul-olam min al-mashriq il-al-magʻrib” (“Mashriqdan magʻribgacha boʻlgan olam hududlari toʻgʻrisidagi kitob”)da bu mavze haqida “Bosand aholisi koʻp (bir) shaharcha, Buxoro, Samarqandga boradigan yoʻlda. Mustahkam joy, odamlari jangovor” deb yozilgan⁸⁶.

Mahmud Gardiziyning “Zayn ul-axbor” (“Xabarlar bezagi”) asarida (1053-yil) ham oʻzini Mahdi paygʻambar deb eʼlon qilgan kimsa (Abu Ali Chagʻoniy yuborgan Jaʼfar ibn Mardonshoh odamlaridan u toqqa qochadi) tufayli Bosand shaharchasi yozib qoldirilgan. Shuningdek asarda Dari Ohanin, Vardi kabi Bosand atrofidagi joy nomlari tilga olingan⁸⁷.

Bosand haqidagi koʻplab yozma manbalarni sharhlagan Sh.S. Kamoliddinov Bosandning Ibn Havqal va IX asr tarixchisi al-Yoqut asarlarida ham tilga olinganligi haqida toʻxtalgan va al-Yoqutda bu manzil Masand shaklida tilga olinganligini taʼkidlaydi⁸⁸. Boysun tarixi va arxeologiyasi, xususan tarixiy geografiyasi bilan shugʻullangan E.V. Rtveladze⁸⁹, Sh.S. Kamoliddinov⁹⁰, T.J. Annaev⁹¹, L.Sverchkovlar⁹² Bosandni hozirgi Boysun hududida joylashtiradilar.

Shunday qilib, Bosand toponimi qayd etilgan yozma manbalar IX asrdan XIII asr boshlariga oiddir. Yozma manbalarda bu joylar Boysun atamasi bilan XV asrdan qayd etilgan⁹³.

Boysun nomining etimologiyasini T. Nafasov, X. Xolmoʻminov quyidagicha izohlaydilar. Boysunda bu soʻzni Boy boʻlsin degan kishi ismidan, shuningdek tojikcha boylik (boy oʻtiradigan joy) birikmasidan kelib chiqqan deb izohlash hollari bor. Oʻzbek

⁸⁶ “Худуд ул-Олам”дан.Форсийдан Омонулла Бўриев таржимаси// Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислон университети.2002. – Б. 177

⁸⁷ Гардизий ва унинг “Зайн ал-ахбор” асари. Форсийдан Гулом Каримов таржимаси// Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислон университети, 2002. – Б. 181.

⁸⁸ Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана в IX- начала XIII вв – Т., “Ўзбекистан”, 1996, – С. 145.

⁸⁹ Аршавская З.А. Ртвеладзе Э.В, Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. – Т., Издательство литературы и искусство имени Г Гуляма. 1982.

⁹⁰ Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана. – Т., “Ўзбекистан”, 1996, – С. 145.

⁹¹ Аннаев Т, Тилолов Б, Худойбердиев Ш. Бойсун археологик ёдгорликлари. – Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1999, – Б. 29-30.

⁹² Свечков Л. Бойсун тарихий реконструкция тажрибаси// Бойсун тарихи ва миллий маданияти. Бойсун экспедицияси тўплами. Нашр 2. – Т., 2005, – Б. 71-73.

⁹³ Шарофиддин Али Яздий “Зафарнома” дан. Форсийдан Омонулла Бўриев таржимаси// Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислон университети 2002, – Б. 189.

xaqlq dostonlarida Boysun eli ko'p tilga olingan. Ayniqsa "Alpomish"dagi va turkumdagi dostonlarda Boysuntog' va yurt nomi sifatida mashhur. Hozirgacha Boysun deb atalmish tog' va mamlakatning qaerdaligi aniqlanmagan. Bu holat Boysun so'zining har qanday tog' va viloyatga qo'llanishi mumkinligini ko'rsatadi. Tuman nomiga tog' yon bag'ridagi qishloq nomi asos bo'lgan. Qishloq esa qurshab turgan tog' nomi bilan atalgan. Shu narsa ma'lumki, xalq tevarak-atrofdagi tog'larni Sorimos, Ketmonchopdi, Suvsiztog' deb ataydi. Boysun (talaffuzida Boysin) qo'shma so'z: boy+sun (sin).

Sin-qadimgi turkiy tilga xos so'z. Mahmud Qashg'ariyda sin-qomat, gavda. Turfan vohasi yodgorliklarida sin so'zining ma'nosi uzv, qism. X-XI asrlarda bitilgan asarlar ("Oltin yoruq", "Qutadg'u bilig")da bo'y-sin tarzida juft so'z bilan qo'llanilgan. Hakas, tuva, uyrot, oltoy kabi bir necha turkiy tillarda bu so'zning yuqoridagi ma'nosidan tashqari, eng dastlabki va bosh ma'nosi saqlanib qolgan. Bu tillarda sin-tizma tog', tog' tizmasi, qoya, yuksak, balandlik.

Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu so'zning boshqa tillardagi tovush tuzilishini ham yuqoridagi shakllarga birmuncha yaqin. Sug'd, fors, tojik tillarida sang-tosh. Xitoy tilida shan-tog'. Tyan-tangri, xudo, ulug', muqaddas. Tyanshanning turkiy tildagi qadimgi nomi Tangritog'. Sin, сын, шын, sang, shan so'zlarining bosh ma'nosi tog'.

Boysun-ulug' tog', muqaddas tog'⁹⁴. Boysun nomi qadimgi turkiy so'zlar "boy" va "sin" dan hosil bo'lgan bo'lib "buyuk tog'" yoki "ulkan tog'" ma'nosini anglatgan⁹⁵.

Shunday qilib, Bosand ba'zan Masand shaklida, yozma manbalarga ko'ra IX asrdan boshlab uchraydi⁹⁶. Bu hududning Boysun shaklida yozma tilga olinishi 1365-yilgi voqealar bayoni munosabati bilan "Zafarnoma" da keltirilgan⁹⁷. Fikrimizcha dastavval Bosand-Boysun nomi keng yaylovlarni qamrab olgan tog'ga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik markazning shakllanishi tufayli oronim tarixiy toponimga aylangan va hudud markazi nomini anglatga boshlagan.

XIX asrda Boysun Sharqiy Buxoroning yirik iqtisodiy, savdo va madaniy markaziga aylanadi. Bu davrda Boysun shahar qism va 14 shahar atrofida joylashgan qishloqlardan iborat bo'lgan va besh ming aholi yashagan. Xoja Murod baxshi soyining ikki qirg'og'i

⁹⁴ Нафасов Т, Холмўминов Х, Ёриев Б. Бойсун топонимикаси. Термиз, Жайхун, 1997, – Б. 40-43.

⁹⁵ Камолиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана. – Т., "Узбекистан". 1996. – С. 145.

⁹⁶ Камолиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана. – Т., "Узбекистан". 1996. – С. 145.

⁹⁷ Шарафиддин Али Яздий "Зафарнома"дан. Форсийдан О.Бўриев таржимаси//Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислон университети, 2002. – С. 189.

bo'ylab shahar xonadonlari va boshqa inshootlar joylashgan⁹⁸. Shaharning markazini Boysun begi qal'a-qo'rg'oni va unga tutash Shayit qishlog'i tashkil etgan. Shayitni shuningdek Jarqishloq deb ham ataganlar. Shayit yoki Jarqishloqda hunarmandlar mahallalari joylashgan bo'lgan. Bular zargarlar mahallasi-Zargarguzar, qassoblar mahallasi-Qassobguzar, charmgarlarniki-Charmguzar va h.k.⁹⁹ Temirchilar qishlog'i Bog'i bolo ya'ni "Yuqori bog" deb nomlangan bo'lib, Boysun qal'asi yonida joylashgan bo'lgan¹⁰⁰.

Adabiyotlar

1. "Худуд ул-Олам"дан.Форсийдан Омонулла Бўриев таржимаси// Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислон университети.2002. – Б. 177
2. Гардизий ва унинг "Зайн ал-аҳбор" асари. Форсийдан Ғулом Каримов таржимаси// Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислон университети , 2002. – Б. 181.
3. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана в IX- начала XIII вв – Т., "Узбекистан", 1996, – С. 145.
4. Аршавская З.А. Ртвеладзе Э.В, Хакимов З.А. Средневековне памятники Сурхандарьи. – Т., Издательство литературы и искусство имени Г Гуляма. 1982.
5. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана. – Т., "Узбекистан", 1996, – С. 145.
6. Аннаев Т, Тилолов Б, Худойбердиев Ш. Бойсун археологик ёдгорликлари. – Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1999, – Б. 29-30.
7. Сверчков Л. Бойсун тарихий реконструкция тажрибаси// Бойсун тарихи ва миллий маданияти. Бойсун экспедицияси тўплами. Нашр 2. – Т., 2005, – Б. 71-73.
8. Шарофиддин Али Яздий "Зафарнома" дан. Форсийдан Омонулла Бўриев таржимаси // Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислон университети 2002, – Б. 189.
9. Нафасов Т, Холмўминов Х , Ёриев Б. Бойсун топонимикаси. Термиз, Жайхун, 1997, – Б. 40-43.
10. Камалиддинов Ш.С. Историческая геграфия Южного Согда и Северного Тохаристана.– Т., "Узбекистан". 1996. – С. 145.

⁹⁸ Маев Н.А.Очерки Бухарского ханства// Материалы статистики Туркистанского края. Выпуск 5. СПб, 1879, – С. 169.

⁹⁹ Кармышева Б.Х.Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., Наука,1976, – С. 52-53.

¹⁰⁰ Северчков Л.М. Бойсун. Тарихий реконструкция тажрибаси. Бойсун тарихи ва миллий маданияти. Бойсун илмий экспедицияси. Нашр 2. – Т.,2006, – С. 71-73.

11. Камолиддинов Ш.С Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана. – Т., "Узбекистан". 1996. – С. 145.

12. Шарафиддин Али Яздий “Зафарнома”дан. Форсийдан О.Бўриев таржимаси//Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислом университети,2002. – С. 189.

13. Маев Н.А.Очерки Бухарского ханства// Материалы статистики Туркистанского края. Выпуск 5. СПб, 1879, – С. 169.

14. Кармышева Б.Х.Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., Наука,1976, – С. 52-53.

15. Северчков Л.М. Бойсун. Тарихий реконструкция тажрибаси. Бойсун тарихи ва миллий маданияти. Бойсун илмий экспедицияси. Нашр 2. – Т.,2006, – С. 71-73.

